

RAHBAR KADRLARNI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH VA UNING IJROSINI TA'MINLASH

Norbekova Malaxot Ibragivna
Samarqand viloyati Payariq tumani
57-maktab texnologiya fan o'qtuvchisi

Annotatsiya: SHuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim muassasasining a'zolari bo'yicha o'tkaziladigan attestatsiya eng birinchi navbatda uning rahbari ish faoliyatining attestatsiyasi hisoblanadi.

Kalit so'zi: Boshqaruv, baholash, rivojlanish, mezon, tizim, takomillashtirish.

Maktab oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qaratilgan, oldindan yaratilgan, mavjud bo'lgan salohiyatlar asosidagi faoliyatlar jarayoni asosiy va yordamchi (ta'lim jarayonlari) jarayonlar hamda ularni ta'minlovchi va sharoitlar yaratuvchi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonlari faoliyatlar bilan bog'liq holda salohiyatni boyitish, kengaytirish asosida yanada yangi sifatlarga yuqori va samarali natijalarga erishishga yo'naltirilgan va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishish va rivojlantirish uchun odatda belgilangan mezonlarni almashtirish; asosiy (ta'lim-tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi) jarayonlarni yoki faoliyat jarayonini takomillashtirish zarur bo'ladi. Maktabning muammolarini hal qilish yo'nalishidagi yondashuvlar, an'analar, belgilangan tartib va me'yorlarni o'z ichiga oluvchi maktab madaniyati pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabni boshqarish uchun rahbarlar va jamoaning boshqa vakillaridan iborat maktabning ichki boshqaruvi, ya'ni ichki nazorat tashkil etiladi. Maktab jamoasi – bu murakkab tizim bo'lib, o'quv va mehnat faoliyatini qoniqarli tashkil etish, shuningdek, maktab faoliyatining natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi rasmiy va norasmiy, gorizontal va vertikal, shaxslararo va mehnat faoliyatiga oid aloqalar hamda munosabatlarni qamrab oladi. Ta'lim muassasasi boshqaruv faoliyatining tizimli ob'ekti sifatida quyidagi xususiyatlarga ega: zaruriyat, imkoniyat, ta'lim muassasasining ko'rsatkichlari va o'z qobiliyatini baholash mezonlarini hisobga olish asosidagi rivojlanish yo'nalishi; uning salohiyati, funktsional imkoniyatlari, individualligi va madaniyligi; maktabning mentaliteti; uning yaxlit pedagogik tizimi; resurslar bilan ta'minlanish imkoniyatlari; ichki imkoniyatlari va tashqi muhit bilan munosabatlari; pedagogik va maktab jamoalarining rivojlanishi, shuningdek, maktabning ichki boshqaruv tizimi va uning rivojlanishi. Ta'lim muassasasining umumiy modelini o'zgartirishda direktor, rahbarlar va pedagoglarning ishonchlariga asoslanishi kerak, chunki yangilangan model zamonaviy talablar darajasida o'quvchilar va bo'lajak o'quvchilar, yosh avlodni o'zgaruvchan ta'lim-

tarbiyaviy, ma'naviy ehtiyojlarini qondira olish, yuqori darajada ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchilarning tajribalarini qo'llash hamda pedagoglarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yetarli sharoitlarni yaratib berish zarur bo'lib, ta'lim muassasasini boshqarishning asosiy tamoyillarini inobatga olish lozim.

Pedagog mehnatini baholashda o'quvchilar ta'lim-tarbiyasining sifatini, ularning ijtimoiy faolligini, attestatsiya natijasini, ota-onalar, o'quvchilar, maktab rahbarlari va hamkasblarining fikrlarini ham hisobga olib uni ma'naviy va moddiy rag'batlantirib borish muhimdir. Rahbar kadrlar uchun test savollari to'plami: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyas, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezident Farmon va Farmoyishlari, Mehnat kodeksi, Davlat ta'lim standartlari, Davlat talablari, milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari, yangi pedagogik-informatsion texnologiyalar, boshqaruv san'atiga oid psixologik testlar, ta'limga oid me'yoriy-huquqiy, moliyaviy hujjatlarga oid masalalarni o'z ichiga oladi.

- rahbar kadrlar ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, rahbarlik qobiliyati va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar bo'yicha test sinovidan o'tkaziladi;

- rahbarning oxirgi attestatsiyasidan keyingi yillardagi o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha faoliyati ta'lim muassasasining rivojlanish sur'ati haqidagi aniq statistik ma'lumotlar asosida o'rganiladi va tahlil qilinadi;

- rahbarning umumiy bali test, suhbat natijalari, rahbar faoliyatini belgilovchi ko'rsatkichlarga qo'yilgan ball hamda jamoa tomonidan berilgan baholar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Ta'lim muassasasini rivojlantirish sur'atini belgilovchi ko'rsatkichlarga bitiruvchilarning bilim darajasi, ta'lim muassasalaridagi o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlarining tashkil etilish darajasi, o'quvchilarning xalqaro va respublika olimpiadalari, sport musobaqalari, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlar bo'yicha ko'riklardagi natijalari, bitiruvchilarning ishga (o'qishga) joylashishi, o'qituvchilar, iqtidorli va kam ta'minlangan o'quvchilarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha olib borilgan ishlar, ta'lim muassasasi moddiy-texnik bazasi, fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi, xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik masalalari kiritiladi.

Attestatsiya natijalari va rahbar mas'uliyati.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim muassasasining a'zolari bo'yicha o'tkaziladigan attestatsiya eng birinchi navbatda uning rahbari ish faoliyatining attestatsiyasi hamdir. CHunki, maktabdagi pedagogik kadrlarning salohiyati, ularning o'z o'rnida ekanligi, ilmiy-pedagogik darajasi rahbar-maktab direktorining bu masalaga qay darajada yondoshganligidan dalolatdir. Agar rahbar o'z jamoa ahliga mehribon, talabchan, eng avvalo o'zi rahbarligi qatori, yuksak saviyadagi mutaxassis, o'qituvchilar professionalizmiga e'tiborli, dars tahlillariga qatnashuvchi, yangi pedagogik texnologiyani joriy etishgina emas, uning ashaddiy tarafdori bo'lsagina, kadrlar attestatsiyasining ijobiy natija berishi turgan gap. SHuning uchun maktab rahbarlari

butun faoliyati davomida bu masala monitoringini uzluksiz olib borishlari nazoratida tutishlari lozim. Belgilanishicha, quyidagilar attestatsiyadan o‘tkazilishi shart:

— maktabgacha va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotli;— umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining oliy ma’lumotli;— o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining umumta’lim, chuqurlashtirilgan va kasbiy ta’lim fanlari bo‘yicha oliy ma’lumotli;— o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotli pedagog kadrlari. Hujjatga ko‘ra, attestatsiya maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari pedagog kadrlari uchun har 5 yilda, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari pedagog kadrlari uchun har 3 yilda bir marta o‘tkaziladi. Ishga yangi qabul qilingan pedagog kadrlar bir yildan so‘ng, oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini bitirib birinchi bor ishga kirganlar 3 yildan so‘ng attestatsiyaga jalb etiladi. Mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan holda uzoq muddat (3 oydan ortiq) davolanayotgan, homiladorlik va tug‘ish, bolani parvarishlash ta’tilidagi pedagog kadrlar ishga qaytganlariga bir yil to‘lgandan so‘ng attestatsiyadan o‘tadi.

Pedagog kadrlar o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy ma’lumotli, ilmiy daraja olganligi yoki qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganligi haqidagi diplomda ko‘rsatilgan tayyorlov, ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassislik yoki ixtisosliklariga mos keladigan fanlar bo‘yicha attestatsiyadan o‘tadi. Pedagog kadrlarning diplomida bittadan ortiq tayyorlov yoki ta’lim yo‘nalishi, mutaxassislik yoki ixtisoslik ko‘rsatilgan bo‘lsa, ular dars berayotgan har bir o‘quv fani bo‘yicha alohida attestatsiyadan o‘tadi. Ta’lim muassasalari rahbarlari attestatsiya muddatini bir oy oldin e’lon qiladi va pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.¹

Attestatsiya 2 bosqichda o‘tkaziladi:

— birinchi bosqichda – attestatsiyadan o‘tuvchilarning o‘quv fani bo‘yicha malaka sinovi natijalari, dars o‘tish mahorati, mehnati samaradorligi ekspert guruhi tomonidan o‘rganiladi va tegishli tavsiyalar tayyorlanadi;

— ikkinchi bosqichda – attestatsiya komissiyasi tomonidan pedagog kadrlarning xorijiy tillar, kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishi, ijtimoiy-siyosiy bilimlarini aniqlash yuzasidan suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayoni videotasvirga olinadi. Attestatsiya komissiyasi attestatsiyadan o‘tuvchining ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, “attestatsiyadan o‘tdi/o‘tmadi”, “tegishli malaka toifasi (lavozim) berilsin/saqlansin/tushirilsin” degan qarorlardan birini qabul qiladi.

Attestatsiya komissiyasi “Attestatsiyadan o‘tmadi, mutaxassis (o‘qituvchi) lavozimiga muvofiq emas” degan qarorni qabul qilsa, pedagog kadrlar navbatdan

¹ M.Mirqosimov «Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari». –T.: «O‘qituvchi», 1995 yil.

tashqari malaka oshirish kurslariga yuboriladi va keyingi yilda qayta attestatsiyaga jalb etiladi. Pedagog kadrlar qayta attestatsiyadan o'tmasa, ish beruvchi tomonidan ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinadi. Attestatsiya komissiyasining qaroriga ko'ra oliy, birinchi, ikkinchi malaka toifasiga yoki bosh, yetakchi, katta o'qituvchi lavozimiga ega bo'lgan pedagog kadrlarga belgilangan shakldagi attestatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi sertifikat attestatsiya o'tkazilgandan so'ng bir oy ichida topshiriladi. Pedagog kadrlarning bazaviy tarif stavkalari miqdori, ularning malaka toifasi yoki lavozimi sertifikat asosida belgilanadi. Sertifikatning amal qilish muddati tugagan pedagog kadrlarga mutaxassis, oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi lavozimi bo'yicha haq to'lanadi. Attestatsiya komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan pedagog kadrlar attestatsiya natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 10 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma ravishda shikoyat berishi mumkin. Shikoyat ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 kun muddatda ko'rib chiqiladi.²

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir rahbar o'zining e'tiborini maktabdagi ta'lim-tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning bilim saviyasini qay darajada ekanligi bilan yaqindan tanishib chiqishi jarayonida o'qituvchilar bilimining saviyasiga, shuningdek, ularga tegishli moddiy hamda ilmiy-metodik yordam ko'rsatishlari, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasi va malakasini oshirishni boshqarishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «SHarq», 1997 y.
2. I.Karimov “XXI asr bo'sag'asida” Toshkent 1997 yil.
3. I.Karimov “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent. “SHarq” nashriyoti 1997 yil.
4. J.G'. Yo'ldoshev Ta'limimiz istiqlol yo'lida. -T.: «SHarq», 1996 y.
5. M.Mirqosimov «Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari». –T.: «O'qituvchi», 1995 yil.
6. K.Zaripov O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. -T.: «O'qituvchi», 1993 y.
7. M.Mirqosimov, M.Aslanova Ta'lim-tarbiya, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik. –T.: 1997 y.

² M.Mirqosimov, M.Aslanova Ta'lim-tarbiya, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik. –T.: 1997 y.